

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludiga bag'langan

“OYBEK - XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTINING ENG YIRIK NAMOYANDASI”

MAVZUSIDA




VIRTUAL KO‘RGAZMA

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK HAYOTI VA IJODI

XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yilning 10-yanvarida Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Oybek — hayot chog'idayoq el-yurt o'rtasida nafaqat buyuk adib, balki buyuk inson sifatida mashhur bo'lgan benazir shaxs. Uning barhayot siymosi esa xotiralarimizda mangu qoladi. Oybek adabiyotga 1926-yili nashr etilgan “Tuyg'ular” she'riy to'plami bilan kirib keldi. Shoirning “Dilbar-davr qizi” (1931), “O'ch” (1932), “Baxtigul va Sog'indiq” (1933), “Temirchi Jo'ra” (1933) dostonlari o'z davrining she'riy solnomalaridir. O'zbek xalqining 1916-yilgi milliy-ozodlik qo'zg'oloni yozuvchining “Qutlug' qon” (1940) romanida tasvirlangan bo'lsa, “Navoiy” (1944) romanida u o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratgan. Oybek 1968-yil 1-iyulda 63 yoshida vafot etdi. 2021-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

O‘qishga tavsiya etamiz!



“Oltin vodiya shabadalar”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (kril)
- Betlar: 528
- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi
- ISBN raqami: 978-9943-20-590-1

“Oltin vodiya shabadalar” – yangi davr adabiyotidagi katta hajmli roman bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi, turmush tarzi, har qanday og‘ir damlarda ham o‘z metin-irodasini ko‘rsata oluvchi xalq ekanligini, mehnatkash kishilardagi betakror fazilatlarni namoyon etadi. Zero, Maqsud Shayxzoda ta’biri bilan aytganda, “O‘zi himmatli ijodkor – mehnatchi bo‘lgan Oybek shuning uchun ham mehnat ahlini sevadi, lirikada bo‘lsin, dostonlarda bo‘lsin, roman va dramatik asarlarida bo‘lsin, Oybekning sevimli qahramoni mehnatkash ishchi va kosiblarni kuylaydi. Mehnatkash insonlardagi o‘lmas fazilatlarni g‘oyat kuchli bo‘yoqlar bilan tasvirlab beradiki, bu xususiyat Oybekning o‘zbek adabiyoti uchun qilgan eng katta xizmatlaridandir.

O‘qishga tavsiya etamiz!



“Quyosh qoraymas”

- Muallif OYBEK

- Nashr yili: 2020

- Tili: O‘zbek (kril)


- Betlar: 288

- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi

- ISBN raqami: 978-9943-20-653-3

Oybekning nasriy asarlari orasida o‘zbek xalqining Ikkinchi jahon urushidagi jasorati tasviriga bag‘ishlangan "Quyosh qoraymas" (1943-1959) alohida e‘tiborga loyiq. Adib mazkur romanini garchand G‘arbiy frontga qilgan safaridan qaytib oq yoza boshlagan bo‘lsada, urush to‘g‘risidagi dahshatli haqiqatni aytish iloji bo‘lmagani uchun, uni 50-yillarda - xastalik paytida yozib tugatdi. Oybek Bektemir va uning ikki jangovar do‘stining timsolini yaratish orqali Sovet davlatining urushga tayyorgarliksiz kirgani va sarkardalarning qo‘pol xatolari tufayli millionlab kishilar, shu jumladan, o‘zbek jangchilarning “to‘p yemi” bo‘layotgani haqidagi haqiqatni badiiy mujassamlantirib berdi.

O‘qishga tavsiya etamiz!




“Qutlug‘ qon”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 368
- Nashriyot: Toshkent.: Zukko kitobxon
- ISBN raqami: 978-9943-6313-5-9

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanining bosh qahramoni Yo‘lchi - mard, halol, oqko‘ngil, olijanob yigit. Ma’lumki, inson o‘zi qanday bo‘lsa, o‘zgalar haqida ham shunday o‘ylaydi. Shuning uchun ham Yo‘lchi shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. U o‘ziga qilinadigan yaxshiliklar evaziga halol mehnati bilan badal to‘lay oladi. Buni siz romanda yigitning mehnatdan qo‘rqmasligi, ishning ko‘zini bilishi tasvirlangan o‘rinlardan payqab olasiz. Asarning ushbu nashrida asarda uchraydigan ilmiy, tarixiy atamalarga, ruscha va baynalmilal so‘zlarga alohida izoh va iqtiboslar berildi va hozirgi o‘zbek adabiy til qoidalari asosida qayta ishlandi.

O‘qishga tavsiya etamiz!




“Navoiy”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 480
- Nashriyot: Toshkent.: Navro‘z
- ISBN raqami: 978-9943-5629-3-6

“Navoiy” romani o‘zbek va rus tillarida bir necha marta nashr etilgan asar. Navoiydan keyingi davr uning asarlariga qiziqishni oshirsa oshirdiki, aslo kamaytirmadi. Oybek asarda Navoiy siymosini yaratadi. Bundan besh asr oldin yashab o‘tgan ulug‘ shoirni aniq va yaqqol tasavvur etish buyuk yozuvchigagina xos. Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo‘lgan munosabati tasviridan ham o‘rinli foydalangan. Asarda Navoiy obraziga xos xususiyatlar sofdillik, qat’iyat va olijanoblik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, “Navoiy” romani o‘zining badiiy –estetik qimmatini, mazmun-mohiyati, badiiy-tasviriy vositalarga limmo-limligi, voqealarning izchilligi, tarixiy haqiqatning ko‘zgusi bo‘la olganligi, qahramonlarning bir-biri bilan, ya‘ni tarixiy va to‘qima obrazlarning uyg‘unlashganligi bilan ham yuksak tahsin va e’tiroflarga loyiq asardir. Shu bois ham bu asar mana necha yillardirki, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan emas , yo‘qotmaydi ham. Chunki chinakam badiiy san’at asari hech qachon o‘lmaydi. Bunday asarlarni xalq unutmaydi. Oybekning o‘zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug‘ mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go‘zal tasvirlab bera olgan bu romani mangu yashayveradi.

O‘qishga tavsiya etamiz!



“Bolalik”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2018
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 272
- Nashriyot: Toshkent.: G‘afur G‘ulom
- ISBN raqami: 978-9943-51-50-2-4

Oybek singari ulug‘ allomalarning bolalik va yoshlik kezlari, ularning ko‘cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi ayniqsa siz yosh avlodlar uchun hamisha ibratlidir.

O‘qishga tavsiya etamiz!




“Bolalik xotirlarim”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 272
- Nashriyot: Toshkent.: Ilm-ziyo-zakovat
- ISBN raqami: 978-9943-5524-3-2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorida yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad O‘g‘li Oybekning “Bolalik xotirlarim” qissasini mutolaa qilgan yosh kitobxonlarning ma’naviy olami shunga yarasha bo‘ladi. Ushbu nashrning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda bugungi yosh kitobxonlarga ayrim so‘z hamda iboralar yana-da tushunarli bo‘lmog‘i uchun tegishli va zarur izohlar ham berilgan.

O‘qishga tavsiya etamiz!




“Bola Alisher”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 95
- Nashriyot: Toshkent.: Turon zamin ziyo
- ISBN raqami: 978-9943-9000-4-2

Qissada ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning bolalikdanoq, Yaratgan bergan zehnga, aql-u odobga ega bo‘lganligi hayotiy lavhalarda aks etadi.

O‘qishga tavsiya etamiz!




“Nur qidirib”

- Muallif OYBEK
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 336
- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi
- ISBN raqami: 978-9943-20-646-5

“Nur qidirib” asarining bosh mavzusi – Pokiston xalqining ikki yoqlama, ya‘ni mustamlakachilar va mahalliy mansabdorlar tomonidan jabr-zulm ostida qolganiga qarshi erksevar xalq farzandlari kurash olib borishlaridan iborat. Qissaning bosh qahramonlari – Ahmad Husayn va Iskandaro xalq ozodligi va farovonligi yo‘lida kurashish barobarida o‘z muhabbatlariga erishish uchun ham astoydil intiladi. Ahmad Husayn moddiy ahvoli tang bo‘lishiga qaramasdan iymon e‘tiqodiga xilof vazifalarda ishlashdan bosh tortadi. Bir-birini qattiq sevgan Ahmad Husayn va Iskandaroning ishq va muhabbat, g‘ayrat va shijoat, o‘zlarining ham, xalqning ham baxtiyor kelajagiga oid orzu va umidlar bilan limmo-lim qalblari “Nur qidirib” quyosh sari talpinadi...

O‘qishga tavsiya etamiz!



“She’rlar”

- Muallif OYBEK
- Tuzuvchi: Mirpo‘lat Mirzo
- Nashr yili: 2026
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 48
- Nashriyot: Toshkent.: Alisher Navoiy
- ISBN raqami: 978-9943-06-599-4

OYBEK (Musa Toshmuhammad o‘g‘li) 1905-yil 10-yanvarda Toshkentda tug‘ilgan. U ijodiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Adib umri davomida ko‘plab nasriy asarlar yaratdi. Uning “Qutlug‘ qon” va “Navoiy” romanlari o‘zbek adabiyotidagi badiiy jihatdan eng yuksak asarlardan sanaladi. Oybek she’riyatda “ko‘ngil lirikasi”ni yaratgan shoirdir. Uning “Chimyon daftari” turkumiga kirgan yurt tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o‘ziga singdirgan she’rlari o‘zbek lirikasining shoh namunalariga aylangan. Shoir bu she’rlari bilan o‘zbek she’riyatiga oybekona inja nafosatni olib kirdi. O‘zbek poeziyasida yangi badiiy tafakkurning shakllanishida Oybekning xizmati kattadir. Shuningdek, u tarjimon sifatida ham faol ijod qilgan. Uning tarjimasidagi A.Pushkinning “Evgeniy Onegin” she’riy romani mudom sevib o‘qiladi. Oybek og‘ir xastalikdan so‘ng 1968-yil 1-iyulda vafot etgan.

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

Axborot kommunikatsiya va raqamlashtirish xizmati

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

BIZNI IJTIMOIIY TARMOQLARIMIZDA KUZATIB BORING!!!

Facebook: https://www.facebook.com/profile.php?id=61574646792252&locale=ru_RU

Instagram: https://www.instagram.com/izboskan_akm/

Telegram: <https://t.me/izboskantumanakm>

YouTube: <https://www.youtube.com/@izboskantumaniakm>

Twitter: <https://x.com/home?lang=ru>

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari:
Feruzaxon Dehqonova